

ALIMENT TO'LOVCHI, AMMO ISHSIZMISIZ? TO'LANADIGAN ALIMENT MIQDORINI BILASIZMI?

Sherqo'ziyev Xolmuhammad

Bu mavzuga to'xtalishimizdan avval aliment o'zi nima degan savolga qisqacha to'xtalib o'tsak. Aliment bu bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi. Aliment to'lash majburiyatlari asosan nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida vujudga keladi. Yurtimizda ota (ona)ning hamda voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning aliment to'lash borasidagi majburiyatlari ayrim qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Bularga misol qilib asosiy qonunimiz, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64,80-moddalarini hamda Oila kodeksining 96, 100-moddalarida, ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari shartligi aniq belgilab qo'yilgan O'zi har bir bola uchun to'lanadigan aliment miqdori qancha? Har bir bola uchun to'lanadigan aliment miqdori qonunchiligimizda belgilab qo'yilgan.

Ya'ni Oila kodeksining 99-moddasiga asosan, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota (ona)ning har oydagi ish haqi va boshqa daromadidan quyidagi miqdorlarda:

- 1 bola uchun-to'rttdan bir qismi;
- 2 bola uchun-uchdan bir qismi;
- 3 va undan ortiq bola uchun-yarmisi miqdorida undiriladi.

Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (Hozirgi kunda 1 050 000 so'm)ning 26,5 foizi (278 250 so'm) dan kam bo'lmasligi kerak.(manba Oila kodeksi) Agar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan to'lanadigan aliment summasi bolani moddiy taminlash uchun kamlik qilsachi? Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan hollarda va tegishli tartibda qo'shimcha mablag' undirilishi mumkin.

Agar aliment to'lovchi shaxs hech qayerda ishlamasachi? Unda aliment summasi qancha miqdorda to'lanadi? O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99-moddasiga

muvofig aliment miqdori aliment to'lovchi shaxsning ish haqi va boshqa daromadlaridan hisoblanadi ya'ni aliment miqdori o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi. Alimentni hisoblash uchun O'zbekiston Respublikasi Prokraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (tashkil etilgan sana 2017-yil 29-may) veb-sahifasiga (MIB.UZ) kiriladi va u yerdan aliment hujjatlar kalkulyatori bo'limiga kiriladi. U yerdan kerakli bandlar to'ldiriladi va hisoblash tugmasi bosiladi, so'ng aliment to'lovchi shaxsning to'lashi lozim bo'lgan summa kelib chiqadi.

Agar aliment to'lovchi shaxs chet elga ishlagani ketmoqchi bo'lsa aliment qanday tartibda undiriladi? Aliment to'lovchi shaxs doimiy yashash uchun yoki 3 oydan ortiq muddatga chet elda yashash uchun xorijiy mamlakatga chiqayotgan bo'lsa aliment to'lovchi shaxs aliment bo'yicha kelishuvga erishishi kerak bo'ladi. Aliment bo'yicha kelishish bu to'lanishi kerak bo'lgan summani muddatidan oldin to'lash, birdaniga hammasini to'lash yoki biror bir mulkni aliment evaziga topshirish yoxud alimentni boshqa usulda to'lash yo'llari bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar oldindan to'langan yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa, shaxs aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzish majburiyatidan ozod etiladi. Alimentni oldindan to'lash to'g'risidagi garov shartnomasini tuzish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bundan tashqari yurtimizda alimentni to'lash imkoni bo'lmagan ayrim toifalar uchun ham bir qancha imkoniyatlar yaratilgan. Bularga misol qilib, aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilinishi mumkin.¹ Aliment to'layotgan ota-onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek aliment to'layotgan ota (ona) nogironligi bo'lgan shaxs bo'lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo'lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo'lgan taqdirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin. Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to'liq ta'minotida bo'lsa, sud aliment to'layotgan ota yoki onaning moddiy ahvolini hisobga olib, to'lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'lgan holatlar

¹ Oila kodeksi 105-modda

tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.²

Farzandlar ham aliment to'laydimi? Albatta, farzandlar ham aliment to'laydi. Voyaga yetgan mehnatga yaroqli farzandlar o'z ota-onasiga g'amxo'rlik qilishlari shart. Bu–majburiyat. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yganligidan qat'i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo'lgunga qadar sudya shu nizo bo'yicha vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib, ajrim chiqarishi mumkin. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.³

Aliment to'lash O'zbekiston qonunchiligida muhim masalalardan biri hisoblanadi. U oilaviy munosabatlar va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Aliment miqdori va uni undirish tartibi qonunlar bilan qat'iy tartibga solingan bo'lib, bolalarning ta'minoti hamda ota-onalarning g'amxo'rligi kafolatlanadi. Shuningdek, aliment to'lashda har ikki tarafning moliyaviy ahvoli hisobga olinib, adolatli qarorlar chiqarilishi mumkin. Shu bilan birga, bu majburiyatlar farzandlar va ota-onalar o'rtasida o'zaro mas'uliyat va yordamga asoslangan kuchli bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64, 80-moddalari – ota-onaning bolalarga ta'minot berishi majburiyati
2. Oila kodeksi 96, 100-moddalari – ota-onaning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz bolalarga ta'minot berishi.
3. Oila kodeksi 99-moddasi – aliment miqdori va uni to'lash tartibi.
4. Oila kodeksi 105-moddasi – aliment miqdorini kamaytirish yoki to'lashdan ozod qilish.
5. Oila kodeksi 110-moddasi – voyaga yetgan farzandlar ota-onaga aliment to'lash majburiyati

² Oila kodeksi 105-modda

³ Oila kodeksi 110-modda